| <i>Hamraqulov Yorqin Murtazaqulovich</i>   |     |
| Internet tizimida muloqotning gendorologik tipologiyasi .....  | 584 |
| <i>Raxmonova Barno Odilovna</i>  |     |
| Bolalarga xos nutq muhitida etiketning ahamiyati .....   | 587 |
| <i>Temirova Nargiza Davlat qizi</i>  |     |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda virtual reallik asosidagi texnologiyalardan foydalanish.....                  | 590 |
| <i>Choriyeva Lobar Fayzullo qizi, Teshaboyeva Zamira Sabirovna, Safarov Azamat Rasul o'g'li</i>  |     |
| Hozirgi kun pedagogi.....  | 594 |
| <i>Dehqanova Muborakxon G'iyeziddin qizi</i>   |     |
| "Avesto"dagi ta'limiy-axloqiy qarashlarning nazariy asoslari va pedagogik ahamiyati .....  | 598 |
| <i>Ibragimova Farangiza Oybekjon qizi</i>  |     |
| Ta'lim-tarbiya jarayonida ijtimoiy-pedagogik muammolarning shakllanish omillari va bartaraf etish yo'llari .....   | 602 |
| <i>Mirzayeva Faroxat Odiljonovna</i>   |     |
| Oliy ta'lim muassasalarini xalqaro reytinglarga tayyorlashda strategik menejmentning o'rni va ahamiyati. ....  | 607 |
| <i>Mannonova Barno</i>   |     |
| Scientific-Theoretical Bases of Developing Students' Creative Ability Through Folk Practical Art .....   | 611 |
| <i>Ruziyeva Mekka Shukhrat kizi</i>  |     |
| 3-sinf ona tili darslarida integratsion yondashuv asosida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi .....                                    | 615 |
| <i>Jurayeva Dildora Ilhom qizi, Mambetova Lobar Mirzavali qizi</i>   |     |
| Kurash mashg'ulotlari jarayonida texnik-taktik ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik asoslari.....  | 618 |
| <i>Soatov E. M.</i>  |     |
| Talabalarining mustaqil ta'limini tashkil etishga asoslangan dasturiy ta'minot yaratish mohiyati .....   | 623 |
| <i>Janabergenova Aysuliy Jaksilikovna</i>  |     |
| Maxsus pedagogning kasbiy kompetentligi: zamonaviy yondashuvlar va muammolar .....   | 626 |
| <i>Shodiyeva Gulchiroy Nurqosimovna</i>  |     |
| O'zbek va qoraqalpoq tillarini integratsiyalashgan holda o'qitishda raqamli texnologiyalarning o'rni.....  | 631 |
| <i>Mapruza Embergenova</i>   |     |
| Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'quv-bilish faoliyatini shakllantirishda neyropedagogik usullardan foydalanishning ahamiyati .....                              | 636 |
| <i>Jumayeva Maxbuba O'ktam qizi</i>  |     |
| Inklyuziv ta'lim muhitida musiqa darslarini tashkil etishning uslubiy asoslari .....   | 641 |
| <i>Narzikulov Javohir Ikromovich</i>   |     |
| Диагностический потенциал формирования критического мышления в оценке нравственной воспитанности студентов педагогических вузов.....                                   | 645 |
| <i>Азимова Гулрухбону, Абдувалиева Мухайё</i>  |     |



|  |     |
|--|-----|
| Musiqa darslarida 4K kompetensiyalarini rivojlantirishning imkoniyatlari va pedagogik shart-sharoitlari....                                    | 652 |
| <i>Ochilova Mohinur</i>  |     |
| Oliy ta'limda fransuz tilini o'qitishda qr-kod texnologiyalarining samaradorligi .....   | 656 |
| <i>Muzaffarova Nodira Mardonovna</i>   |     |
| Смарт-технологии как инструмент повышения эффективности управления .....   | 660 |
| <i>Байбаева Мухайё Худайбергеновна, Дехконова Мохларойим Бахтиёржон кизи</i>   |     |
| Odam markaziy asab tizimi taraqqiyoti va uni rivojlantirishning amaliy yechimlri.....  | 664 |
| <i>Mirzayeva Nodira Abduxamidovna</i>  |     |
| Mentimeter dasturi va uning ta'lim jarayonidagi ahamiyati.....   | 669 |
| <i>Djabbarova Xabiba Kuvandikovna</i>  |     |
| Talabalarda fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishda yangi renessans pedagogikasining o'rni.....  | 673 |
| <i>Qlicheva Go'zal Chorshanbiyevna</i>   |     |
| Kognitiv rivojlanish zamonaviy ta'lim nazariyasida kompleks fenomen sifatida .....   | 678 |
| <i>Abdullayeva Madina Baxtiyor qizi</i>  |     |
| Kursantlarning maxsus chidamkorligini oshirishda qo'llaniladigan vosita va usullar .....   | 681 |
| <i>I. B. Bobomuratov</i>   |     |
| The Main Aspects of the Development of Digital Literacy in Higher Pedagogical Education .....  | 685 |
| <i>Yusupova Go'zal Oybek qizi</i>  |     |
| Conceptual Approaches to Understanding Fanaticism Among Female Adolescents.....  | 689 |
| <i>Sobirova Sojidxon Akramjon qizi</i>   |     |
| Yuqori sinf o'quvchilarida basketbol texnika va taktikasini shakllantirishning pedagogik asoslari.....   | 692 |
| <i>Bobojonov Nozimjon Ne'matjonovich, Sirojiddin Nasriddinov Salohiddin o'g'li</i>   |     |
| Bolalar musiqa va san'at maktablarida musiqa nazariyasi va solfedjio darslarining pedagogik xususiyatlari .....                                | 695 |
| <i>Bobojonova Zeboxon Baxtiyor qizi</i>  |     |
| Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida integrativ yondashuv asosida ekologik madaniyatni rivojlantirish ..                                  | 699 |
| <i>Istamov Zavqiddin Sa'dulloevich</i>   |     |
| Talabalar identiteti va ularga ijtimoiy tarmoqlar ta'sirining global ahamiyati .....   | 702 |
| <i>N. T. Tojiboyeva</i>  |     |
| Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etishning zamonaviy usullari .....  | 707 |
| <i>Narzullayev Mavlonbek Zikrillo o'g'li, Ostonov Zafar Zamonovich</i>   |     |
| Ta'lim metodlari va usullarini modernizatsiya qilish asosida ilmiy tadqiqot madaniyatini rivojlantirishning pedagogik tizimi.....              | 710 |
| <i>Olimov Temir Xasanovich</i>   |     |
| Changes in Adolescents' Communication Under the Influence of Social Media: Emotional Intelligence and Internet Addiction Issues .....          | 715 |
| <i>Salomov Shamsiddin Sabokhiddin Ugli</i>   |     |
| O'smir qizlarning jismoniy rivojlanishini takomillashtirishda defile mashqlaridan foydalanish metodikasi ...                                   | 720 |
| <i>Shaxbazova Gulrux Orifjon qizi, Abdullayeva Maxbuba</i>   |     |
| Umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning divergent fikrlashini shakllantirish metodikasi.....                        | 724 |
| <i>Ubaydullayeva Nazokat Ibodullo qizi</i>   |     |
| Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining pedagogik ko'nikmalarini rivojlantirish: nazariy asoslar, amaliy modellar va innovatsion yondashuvlar ..... | 728 |
| <i>Umurzoqova Laylo Baxtiyor qizi</i>  |     |
| Talaba-yoshlar jismoniy madaniyat va sportini rivojlantirishning strategik imkoniyatlari .....   | 733 |
| <i>Yusupxo'jayev Oxunjon Shuxrat o'g'li</i>  |     |
| Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari.....  | 737 |
| <i>Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna</i>  |     |
| Компенсация трудностей в обучении детей младшего школьного возраста, находящихся на длительном лечении .....                                   | 742 |
| <i>Алимова Нигора Исраиловна, Холлиева Нодира Хайтмуратовна</i>  |     |

|  |     |
|--|-----|
| Формирование профессиональных компетенций будущих художников через освоение узбекского орнамента в системе заданий по композиции.....                            | 745 |
| <b>Д. Б. Бабаева</b>   |     |
| Методика и подходы обучения речи в школьной практике .....   | 750 |
| <b>Шарипов Одилжлон Гуломжон угли</b>  |     |
| Iqtidorli talabalarni aniqlash va rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar .....  | 754 |
| <b>Abdiyeva E'zoza Beknazar qizi</b>   |     |
| Innovatsion menejment tizimida malakali kadrlar tayyorlashning samarali mexanizmlari .....   | 759 |
| <b>Hikmatova Niginabonu Siddiq qizi</b>  |     |
| Oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchilarni anonim baholash tizimining ishonchligi va pedagogik samaradorligini baholash.....                                     | 764 |
| <b>Maksudova Aziza Ikramdjanovna, Akramxo'jayev Yo'ldoshxo'ja Tursunxo'jayevich, Avezov Toshtemir Abdualiyevich, Abdullayeva Maftuna Shonazarovna</b>            |     |
| Raqamli ta'lim muhitida mexanikani o'qitishning pedagogik muammolari.....  | 771 |
| <b>Choriyev Islom G'ayratovich</b>   |     |
| Musiqqa mashg'ulotlarida sun'iy intellekt texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari.....   | 775 |
| <b>Siddiqova Gulnoza Sharaviddinovna, Bahora Akbarova</b>  |     |
| Moychechak yetishtirishda mineral va organik o'g'itlarning ta'siri .....   | 778 |
| <b>Jabbarova Nigina Zoxidjon qizi</b>  |     |
| Kompetensiyaviy yondashuv sharoitida bo'lg'usi matematika o'qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirish .....                                       | 783 |
| <b>Esonov Munavvarjon Mukimjonovich, Xabibullayev Islomjon Soyibjon o'g'li</b>   |     |
| Специфика формирования математического мышления студентов вузов посредством модуля "векторы" .....   | 786 |
| <b>Эсонов Мунавваржон Муқимжонович, Салихов Амир Тимурович</b>   |     |
| Autizm spektri buzilishiga ega bolalar oilalarida sibling munosabatlarining nazariy-metodologik asoslari..   | 790 |
| <b>Rayimova Gulchehra Utkur qizi</b>   |     |
| Особенности использования инструментов управления проектами: отраслевой подход.....  | 794 |
| <b>Сидиков Зиёдулло Равшанович, Холиярова Шохиста Кахрамоновна</b>   |     |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maxsus ehtiyojli bolalar uchun inklyuziv ta'limni tashkil etishda qiyinchiliklar va samarali strategiyalar.....               | 800 |
| <b>Abdalimova Iroda Ummatqul qizi</b>  |     |
| Manzara janrining tasviriy san'atdagi o'rni: ekologik-estetik mazmuni va ta'limiy imkoniyatlari .....  | 805 |
| <b>Abdumajidova O'g'loy Ravshanjon qizi</b>  |     |
| E-Assessment vositalarining ta'lim jarayonidagi o'rni va funksional imkoniyatlari.....   | 809 |
| <b>Abdumannopov Murodjon Ilxomjon o'g'li</b>   |     |
| Masofaviy ta'lim jarayonida talabalar faolligini oshirishning interfaol metodlari.....   | 813 |
| <b>Abduvaxobov Shohruhbek Ikromjon o'g'li</b>  |     |
| Bo'lajak chet tili o'qituvchilarini tayyorlashdagi muammolar .....   | 816 |
| <b>Davlatova Firuza Kamolovna</b>  |     |
| Biologiya darslarida muammoli ta'lim va zoologiya fanini o'qitishda STEAM ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish ..... | 820 |
| <b>Hayitov Abdurasul Eshdaviatovich, Xolboyeva Nigina Uchqunovna, Ravshanov Asliddin Ulug'bek o'g'li</b>   |     |
| Sport gimnastikasida innovatsion texnologiyalarni joriy etishning pedagogik va amaliy jihatlari.....   | 826 |
| <b>Karimov Doniyor Komil o'g'li</b>  |     |
| Neyropsixologiya va neyropedagogikaning shakllanishi va rivojlanish tarixi.....  | 830 |
| <b>N. O. Saidova</b>   |     |
| Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishining nazariy asoslari.....   | 833 |
| <b>Nosirova Shoxsanam Negmat qizi</b>  |     |
| Maxsus pedagogning kasbiy kompetentligi: zamonaviy yondashuvlar va muammolar .....   | 837 |
| <b>Shodiyeva Gulchiroy Nurqosimovna</b>  |     |
| O'quvchilarning kreativ tafakkurini shakllantirishda tasviriy san'at va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish.....                                     | 841 |
| <b>Tulaganov Jahongir Abdimurot o'g'li</b>   |     |



|   |     |
|---|-----|
| Vizual ta'lim texnologiyalari yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini diagrammaviy masalalar yordamida rivojlantirish ..... | 845 |
| <b>Usmonova Shahlo Saidjon qizi</b>   |     |
| Biologiya darslarida o'quvchilarning ilmiy xabardorlik kompetensiyasini shakllantirishda mashq va masalalardan foydalanish metodikasi .....           | 849 |
| <b>Yakubova Fotima Xamza qizi</b>   |     |
| Система духовных ценностей в современной русской прозе (а. волос “сирийские розы”) .....  | 853 |
| <b>Ольга Чангировна Хегай</b>   |     |
| Alohida yordamga muhtoj bolalar toifalari va ularning pedagogik-psixologik tasnifi .....  | 856 |
| <b>Xaydarova Umidaxon Baxromjon qizi</b>  |     |



# VIZUAL TA'LIM TEKNOLOGIYALARI YORDAMIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING MANTIQUIY TAFAKKURINI DIAGRAMMAVIY MASALALAR YORDAMIDA RIVOJLANTIRISH



Usmonova Shahlo Saidjon qizi

Guliston davlat pedagogika instituti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: Qulmamatov Sindorqul Ibragimovich  
P.f.n., dotsent

**Annotatsiya:** Ushbu maqola vizual ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish masalasi tahlil qilinadi. Xususan, diagrammaviy masalalarning o'quvchilarda tahliliy fikrlash, muammoni hal qilish va umumlashtirish ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rni asoslab beriladi. Tadqiqot jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interfaol metodlar va vizual vositalarning samaradorligi o'rganilib, ularning ta'lim sifatini oshirishdagi ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, diagrammaviy topshiriqlar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va mantiqiy xulosalar chiqarish qobiliyatini rivojlantirishga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** diagrammaviy masalalar, interfaol metodlar, mantiqiy tafakkur, mustaqil fikrlash, pedagogik texnologiyalar, vizual ta'lim.

**Abstract:** This article examines the development of logical thinking in primary school students through the use of visual educational technologies. Particular attention is paid to the role of diagram-based tasks in fostering analytical thinking, problem-solving skills, and generalization abilities. The study explores the effectiveness of modern pedagogical approaches, interactive methods, and visual tools, highlighting their impact on improving the quality of education. In addition, practical recommendations are provided for enhancing students' independent thinking and logical reasoning through diagram-based activities.

**Key words:** diagram-based tasks, interactive methods, independent thinking, logical thinking, pedagogical technologies, visual education.

**Аннотация:** Данная статья рассматриваются вопросы развития логического мышления учащихся начальных классов на основе использования визуальных образовательных технологий. Особое внимание уделяется роли диаграммных задач в формировании аналитического мышления, навыков решения проблем и обобщения. В ходе исследования анализируется эффективность современных педагогических подходов, интерактивных методов и визуальных средств обучения, а также их влияние на повышение качества образования. Кроме того, предложены практические рекомендации по развитию самостоятельного мышления и способности к логическому выводу у учащихся с помощью диаграммных заданий.

**Ключевые слова:** визуальное обучение, диаграммные задачи, интерактивные методы, логическое мышление, педагогические технологии, самостоятельное мышление.

## KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Xususan, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ta'lim jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish, o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan <sup>[1]</sup>.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga keng joriy etish dolzarb masalaga aylangan bo'lib, PF-6108-son Farmonda ta'lim tizimini raqamlashtirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish zarurligi alohida ta'kidlangan <sup>[2]</sup>.

Shu bilan birga, PF-6387-son Farmonda ta'lim sifatini oshirish va innovatsion metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etiladi<sup>[3]</sup>.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, vizual ta'lim texnologiyalari o'quvchilarning bilimni o'zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshiradi. Jumladan, John Hattie o'z tadqiqotlarida samarali o'qitish usullari ichida vizual vositalar muhim o'rin tutishini asoslab bergan<sup>[4]</sup>.

Shuningdek, Richard E. Mayerning multimedia ta'lim nazariyasiga ko'ra, axborotni vizual va eshitish kanallari orqali birgalikda taqdim etish o'quvchilarning kognitiv faolligini oshiradi<sup>[5]</sup>.

Psixologik nuqtai nazardan, Lev Vygotsky tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi o'quvchilarning tafakkuri faol o'qitish jarayonida shakllanishini ko'rsatadi<sup>[6]</sup>. Bu esa diagrammaviy masalalar orqali o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish samarali ekanligini asoslaydi.

Xalqaro tajribalar ham vizual ta'lim texnologiyalarining ahamiyatini tasdiqlaydi. Jumladan, UNESCO tomonidan ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda innovatsion va vizual metodlardan foydalanish muhimligi qayd etilgan<sup>[7]</sup>.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, vizual ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligi aniqlanadi. Mazkur maqolada diagrammaviy masalalar asosida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritiladi.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur mavzu bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, vizual ta'lim texnologiyalarining yuqori samaradorligini tasdiqlaydi. Jumladan, John Hattie ta'lim samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilib, vizual va interfaol metodlar o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshirishda muhim o'rin tutishini aniqlagan<sup>[4]</sup>.

Richard E. Mayer esa multimedia ta'lim nazariyasi asosida vizual va audial axborotlarning uyg'unlashuvi o'quvchilarning kognitiv jarayonlarini faollashtirishini ilmiy jihatdan asoslab beradi<sup>[5]</sup>.

Psixologik yondashuvlar nuqtai nazaridan, Lev Vygotskyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi o'quvchilarning tafakkuri o'qituvchi va muhit bilan o'zaro ta'sir jarayonida shakllanishini ko'rsatadi<sup>[6]</sup>. Bu esa o'qitish jarayonida vizual vositalar va diagrammaviy masalalardan foydalanishning samaradorligini asoslaydi.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham vizual ta'lim texnologiyalarining ahamiyati alohida e'tirof etilgan. Jumladan, UNESCO hisobotlarida zamonaviy ta'lim tizimida innovatsion va raqamli vositalardan foydalanish o'quvchilarning tanqidiy va mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qilishi qayd etiladi<sup>[6]</sup>.

Mahalliy ilmiy tadqiqotlarda ham ushbu masala keng o'rganilgan. Pedagogika sohasidagi izlanishlarda esa vizual metodlar o'quvchilarning tahliliy fikrlash va muammoni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanadi.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda belgilangan maqsadlarga erishish va boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini vizual ta'lim texnologiyalari asosida rivojlantirishning samarali yo'llarini aniqlash maqsad qilingan. Tadqiqot metodologiyasi kompleks yondashuvga asoslanib, nazariy va amaliy metodlarning uyg'unlashuvi orqali tashkil etildi.

Tadqiqotning nazariy asosini John Hattiening ta'lim samaradorligi omillariga oid qarashlari, Richard E. Mayerning multimedia ta'lim nazariyasi hamda Lev Vygotskyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish konsepsiyasi tashkil etdi. Ushbu nazariyalar asosida vizual vositalarning o'quvchilarning kognitiv jarayonlariga ta'siri hamda diagrammaviy masalalarning mantiqiy fikrlashni rivojlantirishdagi o'rni ilmiy jihatdan asoslandi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- 1. Tahliliy va komparativ metod;** Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda ilg'or xorijiy tajribalar tahlil qilindi. Bu orqali vizual ta'lim texnologiyalarining nazariy asoslari va ularning amaliy qo'llanilish imkoniyatlari aniqlashtirildi.
- 2. Pedagogik eksperiment;** Tadqiqot boshlang'ich sinf o'quvchilari ishtirokida tashkil etildi. Eksperiment jarayonida o'quvchilar nazorat va tajriba guruhlariga ajratilib, tajriba guruhida vizual ta'lim texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan diagrammaviy masalalar tizimi qo'llanildi. Nazorat guruhida esa an'anaviy o'qitish metodlari asosida darslar olib borildi. Eksperiment natijalari o'quvchilarning mantiqiy tafakkur darajasidagi o'zgarishlar orqali baholandi.
- 3. Diagnostik baholash metodlari;** O'quvchilarning mantiqiy fikrlash darajasini aniqlash maqsadida maxsus testlar, diagrammaviy topshiriqlar va muammoli vaziyatli savollar ishlab chiqildi. Baholash mezonlari sifatida tahliliy fikrlash, umumlashtirish, solishtirish va xulosa chiqarish ko'nikmalari belgilandi.



4. **Kreativ (ijodiy) yondashuv asosidagi metodlar;** Tadqiqotda STEAM elementlari, vizual modellashtirish, infografika yaratish va diagrammalar bilan ishlash kabi innovatsion metodlar qo'llanildi. O'quvchilarga mustaqil ravishda diagramma tuzish, muammoni grafik ifodalash va vizual yechimlar ishlab chiqish topshiriqlari berildi. Bu esa ularning nafaqat mantiqiy, balki ijodiy tafakkurini ham rivojlantirishga xizmat qildi.
5. **Statistik tahlil metodlari;** Olingan natijalar miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilindi. Eksperimentdan oldingi va keyingi ko'rsatkichlar solishtirilib, vizual ta'lim texnologiyalarining samaradorligi aniqlashtirildi. Tadqiqotning metodologik yangiligi shundaki, unda vizual ta'lim texnologiyalari diagrammaviy masalalar bilan integratsiya qilinib, o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishning kompleks modeli ishlab chiqildi. Ushbu model o'quvchilarning bilimni vizual idrok etish, tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarish kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Tadqiqot jarayonida UNESCO tomonidan ilgari surilgan zamonaviy ta'lim yondashuvlari, xususan, o'quvchi markazli ta'lim, interfaol metodlar va raqamli texnologiyalardan foydalanish tamoyillari inobatga olindi. Bu esa tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.


## TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda tadqiqot metodologiyasiga muvofiq o'tkazilgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish darajasi tajriba va nazorat guruhlarida kesimida o'rganildi. Eksperiment boshida va yakunida o'tkazilgan diagnostik test natijalari o'zaro taqqoslandi. Dastlabki bosqichda har ikki guruh o'quvchilarining mantiqiy fikrlash ko'rsatkichlari deyarli bir xil darajada ekanligi aniqlandi.

O'quvchilarning asosiy qismi o'rta darajada natija ko'rsatgan bo'lib, yuqori darajadagi ko'rsatkichlar nisbatan past ulushni tashkil etdi. Bu holat boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy tafakkurni rivojlantirish uchun maxsus metodik yondashuv zarurligini ko'rsatdi. Tajriba jarayonida tajriba guruhida vizual ta'lim texnologiyalariga asoslangan diagrammaviy masalalar tizimli ravishda qo'llanildi. Darslarda grafik tasvirlar, sxemalar, diagrammalar va infografikalardan foydalanildi.

O'quvchilar mustaqil ravishda diagramma tuzish, muammoli vaziyatlarni vizual ifodalash va mantiqiy yechimlar ishlab chiqish faoliyatiga jalb etildi. Nazorat guruhida esa an'anaviy metodlar asosida o'qitish davom ettirildi. Yakuniy natijalar shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhida o'quvchilarning mantiqiy tafakkur darajasi sezilarli darajada oshdi. Xususan: yuqori darajadagi natijalar ulushi keskin oshdi, o'rta darajadagi o'quvchilar soni kamayib, ular yuqori bosqichga o'tdi, past darajadagi ko'rsatkichlar deyarli kamaydi. Nazorat guruhida esa ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan bo'lsa-da, ular tajriba guruhiga nisbatan ancha past darajada bo'ldi.

Quyidagi diagrammada tajriba va nazorat guruhlarining eksperimentdan oldingi va keyingi natijalari foizlarda ifodalanadi:



Mazkur diagrammadan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhida yuqori darajadagi ko'rsatkichlar 15% dan 40% ga oshgan, past darajadagi natijalar esa 30% dan 15% ga kamaygan. Bu esa vizual ta'lim texnologiyalarining samaradorligini yaqqol namoyon etadi.

Olingan natijalar Richard E. Mayerning multimedia ta'lim nazariyasini tasdiqlab, vizual vositalar orqali berilgan axborot o'quvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtirishini ko'rsatdi. Shuningdek, John Hattie tadqiqotlarida qayd etilgan samarali o'qitish omillari amaliy jihatdan o'z tasdig'ini topdi.

Shu bilan birga, o'quvchilarda quyidagi ijobiy o'zgarishlar kuzatildi: muammoni tahlil qilish ko'nikmasi rivojlandi, mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish darajasi oshdi, vizual tafakkur va ijodiy yondashuv shakllandi. Tadqiqot natijalari vizual ta'lim texnologiyalariga asoslangan diagrammaviy masalalar boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini samarali rivojlantirish vositasi ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida olib borilgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda vizual ta'lim texnologiyalari va diagrammaviy masalalardan foydalanish yuqori samaradorlikka ega. Eksperiment natijalariga ko'ra, tajriba guruhidagi o'quvchilarda yuqori darajadagi mantiqiy tafakkur ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshdi, past darajadagi natijalar esa kamaydi. Bu esa vizual va interfaol metodlar o'quvchilarning mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish va ijodiy yondashuv qobiliyatlarini rivojlantirishga samarali ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Diagrammaviy masalalar orqali o'quvchilarga nafaqat mantiqiy fikrlash ko'nikmalari, balki vizual idrok va ijodiy tafakkurni rivojlantirish imkoniyati ham yaratiladi. Shu bilan bir qatorda o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash orqali dars jarayoni interfaol va qiziqarli bo'lib, ta'lim samaradorligi oshadi.

Xulosadan kelib chiqib quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

1. Boshlang'ich sinf darslarida vizual ta'lim texnologiyalarini integratsiyalash orqali diagrammaviy masalalar tizimini joriy etish.
2. Pedagogik kadrlar uchun vizual va interfaol metodlarni qo'llash bo'yicha maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil etish.
3. O'quv jarayonida STEAM elementlarini qo'llash, infografika va diagrammalar orqali o'quvchilarning mustaqil tafakkur va ijodiy yondashuvini rivojlantirish.
4. Darslarni rejalashtirishda o'quvchilarning kognitiv darajasini inobatga olib, individual va guruhli mashg'ulotlarni uyg'unlashtirish.
5. Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda vizual ta'lim texnologiyalarining samaradorligini kuzatish va baholash bo'yicha muntazam monitoring tizimini joriy etish. Shu bilan birga, mazkur tadqiqotning natijalari nafaqat boshlang'ich ta'limda, balki maktabning boshqa bosqichlarida ham vizual va interfaol yondashuvlarni qo'llashni rivojlantirish uchun ilmiy asos sifatida xizmat qilishi mumkin. Bu esa ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish va o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini sifatli oshirishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. <https://ilmlar.uz/ozbekiston-respublikasi-talim-togrisida-gi-qonuni/>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6108-son farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6387-son farmoni.
4. John Hattie. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. London: Routledge, 2023.
5. Richard, E & Mayer. Multimedia Learning (3rd ed.). Cambridge University Press, 2021.
6. Raximova, F. Pedagogika bo'yicha zamonaviy tadqiqotlar. Boshlang'ich ta'limda vizual metodlardan foydalanish. "Xalq ta'limi" jurnali. Toshkent, 2022.
7. UNESCO. Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. Paris, 2021.
8. Lev Vygotsky. Thought and Language. Updated edition. MIT Press, 2022. <https://mitpress.mit.edu/books/thought-and-language>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №4(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.